



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдулаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхураевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


1. Юлдуз Эргашева ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ II МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	5
2. Nilufar Djurayeva O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDAGI TUB ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI..	13
3. Камола Саипова НАЦИОНАЛЬНО-ГОСУДАРСТВЕННОЕ РАЗМЕЖЕВАНИЕ И ЕГО ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА УЗБЕКСКОЙ ССР.....	26
4. Отабек Алимардонов ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИНГ ТЎРТ КВАДРАНТИ (ЧОРАК) ПАРАДИГМАСИ: НАЗАРИЙ ТИПОЛОГИЯ ВА ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ.....	34
5. Zilola Abdualimova SOVET PLAKATLARI TARG‘IBOT VOSITASI SIFATIDA (MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRISH MISOLIDA).....	45
6. Шерзод Бахранов ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ПАХТАЧИЛИК ИLMИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН.....	52
7. Abduvali Berdiyev SHARQIY TURKISTON BILAN SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHIDA QO‘QON KARVON YO‘LLARINING O‘RNI VA ULARNING MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TA‘SIRI (18–19-ASRLAR).....	58
8. Икрамжон Исмаилов ФАРҶОНА ВОДИЙСИ ВИЛОЯТЛАРИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДАГИ МУАММО ҲАМДА ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй).....	69
9. Земфира Курбанова ЦИКЛЫ ПОМИНОВЕНИЯ В СЕМЕЙНЫХ ОБРЯДАХ КАРАКАЛПАКОВ И ИХ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЕ ПАРАЛЛЕЛИ.....	80
10. Tamara Ro‘ziyeva MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING “TUHAFI AHLI BUXORO” ASARIDA TURKISTON JAMIYATI HAQIDA.....	87
11. Sarvinoz Toshmurodova MILLIY SPORT TIZIMI VA OLIMPIYA HARAKATI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.....	92
12. Elyor Hojamberdiyev TURON ARXELOGIYASINI O‘RGANISHDA YONDASHUV VA TADQIQOT USULLARI (ERON OLIMLARI MISOLIDA).....	99



Tamara Ro'ziyeva,
Navoiy davlat universiteti
Tarix kafedrası o'qituvchisi

MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING “TUHAFI AHLI BUXORO” ASARIDA TURKISTON JAMIYATI HAQIDA

For citation: Tamara Ruziyeva. ABOUT THE SOCIETY OF TURKESTAN IN MIRZO SIROJIDDIN HAKIM'S WORK “TUHAFI AHLI BUKHARA”. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 7, pp.87-91

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16755295>

ANNOTATSIYA

Maqolada jadidchilik harakati namoyandaligidan biri Mirzo Sirojiddin Hakimiyning sayohat davrida ko'plab voqealar va jarayonlarning guvohi bo'lgani, Rossiya imperiyasi mustamlakasi sharoitida yashayotgan Turkistonning tobeligi sabablarini, Turkiston jamiyatining bilimsizligi va uni uyg'onishga, Vatan uchun birlashishga va uning rivojlanishi yo'lida ilm olishga hamda mehnat qilishga doir chaqiriqlari, taraqqiyotga erishish uchun maorif sohasini rivojlantirish va isloh qilish kerakligiga doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Jadidchilik harakati, Turkiston jamiyati, safar, nifoq, “Utlubu l-ilma va lav bis-Sin”, ovro'po, kufr, madrasa, ta'lim, tarbiya.

Тамара Рузиева,
преподаватель кафедры истории
Навоийского государственного университета

ОБ ОБЩЕСТВЕ ТУРКЕСТАНА В ТРУДЕ МИРЗО СИРОДЖИДДИНА ХАКИМА «ТУХАФИ АХЛИ БУХАРА»

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются переживания Мирзо Сироджиддина Хакима, одного из представителей движения джадидов, во время его путешествий, в которых он стал свидетелем многочисленных событий и процессов. В статье освещаются причины подчинения Туркестана колониальному господству Российской империи. Также представлены призывы автора к пробуждению невежественного и необразованного общества Туркестана, объединению ради родины, приобретению знаний и работе на благо развития страны. Подчеркивается важность развития и реформирования сферы образования как ключевого пути к прогрессу.

Ключевые слова: джадидское движение, туркестанское общество, путешествия, раздор, «Утлубу л-илма ва лав бис-син», Европа, неверие, медресе, образование, воспитание.

Tamara Ruziyeva,
Lecturer Department of History
Navoi State University

ABOUT THE SOCIETY OF TURKESTAN IN MIRZO SIROJIDDIN HAKIM'S WORK "TUHAFI AHLI BUKHARA"

ABSTRACT

This article discusses the experiences of Mirzo Sirojiddin Hakimiy, one of the representatives of the Jadid movement, during his travels, in which he witnessed numerous events and processes. The article highlights the reasons behind Turkestan's subjugation under the colonial rule of the Russian Empire. It also presents the author's calls for awakening the ignorant and uneducated society of Turkestan, uniting for the sake of the homeland, acquiring knowledge, and working for the country's development. The importance of developing and reforming the field of education as a key path to progress is emphasized.

Index Terms: Jadid movement, Turkestan society, travel, discord, "Utlubu l-ilma va lav bis-Sin," Europe, infidelity, madrasa, education, upbringing.

1. Dolzarbligi:

Jadidchilik yoki jadidizm XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy harakat hisoblanadi. Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Jadidchilikning asosiy g'oyalari va maqsadlari Turkistonni o'rta asrlar qoloqligi va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqni ma'rifatli qilish, dunyoning ilg'or davlatlaridan ko'p jihatdan ortda qolgan Turkiston xalqlarini bo'lajak fojialardan ogoh etish, jamiyat hayotini inqilobiy – zo'rlik yo'li bilan emas, balki tadrijiy-ma'rifiy yo'l bilan ijobiy tomonga o'zgartirish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi, kurash usuli edi.[1] Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Shunday ekan, jadidchilik harakati namoyandalari faoliyatini o'rganish tarixshunoslikning yirik yo'nalishlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat-e'tiboridagi dolzarb masala bo'lib, bu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu jarayon davom etayotganini ko'rish mumkin.

2. Metodlar:

Maqola umum e'tirof etilgan metodlar, jumladan tarixiy-taqqoslash, qiyosiy-tahlil, tizimlashtirish, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, bugungi kunda jadidchilik harakati namoyandalari faoliyatini o'rganish, ayniqsa Mirzo Sirojiddin Hakimning o'rni beqiyos ekanligi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalardan biri sifatida ochib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyandalari faoliyatini o'rganar ekanmiz, ularning barcha sohalarda ibrat va o'rnak bo'lganlarini ko'ramiz. Buxoro jadidchilik harakatini qo'llab-quvvatlagan, islohotchilik harakatida ishtirok etgan va iqtisodiy jihatdan rag'batlantirgan Mirzo Sirojiddin jamiyatdagi muammolar, milliy nuqsonlar, ta'lim-tarbiya masalalarini kun tartibiga qo'ydi hamda ularni bartaraf etish choralari izladi. U Eron, Afg'oniston, Hindistonda bo'lib, uzoq yillar sayohatlar, savdo-sotiq, ko'pincha zamonaviy ilm-fanni o'rganish bilan shug'ullanib, boy tajriba orttirdi. Fransiya va Rossiyada ham bo'lib u yerda ham dunyo madaniyatlari haqida ma'lumot olishga va u yerda yashovchi xalqlarning xilma-xil madaniyatlari bilan tanishishga intildi.

Mirzo Sirojiddin ta'lim va tarbiyasi bo'lishning bir usulini bu safarga chiqishda deb biladi. Sayohat davrida ko'plab voqealar va jarayonlarning guvohi bo'lish insonning bilimini oshiradi, tarbiyasidagi qusurlarni bartaraf etadi deb hisoblaydi:

“Safar nima? Boisi ilmu hunar bilgay,
Safar nima? Tajribai xayru shar bo‘lgay.
Safardir har ishda intiho,
Safardan har xomning pishib etgay”.[2]

Mirzo Sirojiddin Rossiya imperiyasi mustamlakasi sharoitida yashayotgan Turkistonning tobeligi sabablarini milliy nuqsonlardan izlaydi. Bir paytlar dunyoni boshqargan Turkistonning bugungi mag‘lubiyati va tanazzulining asosiy sababi birlik, shijoat, adolat yo‘qligi, bilimsizlikda deb biladi: “O‘zimizning mag‘lub va tobeligimizni ham ko‘z bilan ko‘rsak. U barcha taraqqiyotning sababi nima edi? Va bu barcha tanazzulga kim sabab bo‘ldi? U paytda sher bo‘lish nimadan edi? Keyin tulki bo‘lish nimadan bo‘ldi? Ha u payt shijoatimiz bor edi, hozir falokat, u payt ogoh edik, endi xarob bo‘ldik. Sabab nima va boisi kim? Bularning sababu boisi shuki u payt birlashar edik, hozir nifoq (to‘zilgan). U paytda g‘ayrat va diniy himmatimiz bor edi, hozir dunyoviy muhabbat. U paytda din g‘amini er edik, hozir dunyo g‘amini. U payt adolat qilardik, hozir zulm. U payt butun dunyodan olim edik, hozir eng bilimsiz xalq bo‘ldik. Dunyoning sharq-u g‘arbi barchasi bizga muhtoj edilar va bizdan namuna olardilar. Endi biz dunyo xalqiga to‘liq mag‘lub va qo‘l ostidamiz”.[3]

U sayohati qilish chog‘ida Germaniya davlatiga borib boshlang‘ich maktablarni ko‘rgani va har bir maktabda 100 yoki 500 nafargacha bola ta‘lim olishini, har bir maktabda turli xil ma‘lumotlarga ega, bir nechta tilga ega bo‘lgan bir nechta o‘qituvchilar dars berishini, har bir fan o‘qituvchisi alohida hisoblanib, har bir sohaning o‘ziga xos maktabi mavjudligini shuningdek, bu maktablarda ayollar ham erkaklar ham birdek ta‘lim olishini, biroq, erkaklar maktabi ko‘proq ekanligini alohida ta‘kidlab, ba‘zi fanlar erkaklar uchun ixtisoslashganligini xursandchilik bilan ta‘riflab beradi.

Maktab eshiklari ikki tomondan bog‘ga ochiladi. Maktab binosi ham uch qavatli bo‘lib, har bir qavatda o‘z o‘qituvchisi bor, har bir qavatda o‘n nafar o‘qituvchi va yordamchi dars beradi. Maktab zamini toza, yog‘li yong‘oq yog‘ochlari bilan yaxshi ta‘minlangan edi. Bolalarning yozuv taxtasi va stollari shu qadar toza va sayqallanganni alohida ta‘kidlab tasvirlab beradi. U bu yerdagi maktablardagi sharoitlarni tasvirlash jarayonida uning ko‘z o‘ngida “darrov maktablarim, kir partalarim, bolalarga g‘azablangan shahzodadek munosabatda bo‘lgan savodsiz o‘qituvchilarim yodimga tushdi” deya xo‘rsinib o‘z yurtini ko‘z oldiga ilmsizlikdan aziyat chekkan xalqi gavdalanadi. Bir paytlar butun dunyo tamaddunini boshqargan Turkiston ilmsizlik tufayli jar yoqasiga kelib qoldi, ilmni xor qilgani uchun o‘zi ham xor bo‘ldi, deb xulosa qiladi: “Ki biz ilmni xor qildik, xor bo‘ldik.”[3]

Mirzo Sirojiddin islom dini ilm tarafdori bo‘lganligi, Muhammad payg‘ambar hadislarida ham ilm o‘rganishga alohida urg‘u berganligini ta‘kidlab, bu kimga qarata aytilgan, degan savolni qo‘yadi. Evropaliklar ilm-fanni barcha sohalarini o‘zlashtirib, texnika inqilobi qilgan bir paytda Turkistonning bu borada ancha orqada qolib ketganligidan afsuslanadi: “Utlubu l-ilma va lav bis-Sin” (Ilmni talab qiling, agarchi u Chinda bo‘lsa ham) kimga qarata aytilgan bo‘lsa? Nima sabab bo‘ldiki, barcha ilmu fanni ular (evropaliklar) oldilar, biz ularning ilmu faniga muhtoj bo‘ldik va er yuzining barchasini ular tasarruf etdilar. Biz ularning qo‘li ostida bo‘ldik. Nima uchun biz ko‘chada, iflos (nopok) bozorlarda yashab ishlashimiz, issiq quyoshlarda dehqonchilik qilib narsaga ega bo‘lishimiz va ularga bergan san‘atlarimiz evaziga o‘zimizni tilanchi qilishimiz kerak”.[4]

Yevropaliklar tomonidan butun dunyoni egallash uchun olib borayotgan harakatlari, egallangan yurtlarning xom ashyo bazasiga aylantirilayotganligi, boyliklarining tashib ketayotganligining sababi ham Turkiston jamiyatining bilimsizligidan deb biladi: “Biz Osiyo xalqining barcha boyliklarini ular (Yevropa) olib ketar ekan ular boy bo‘lmasdan kim boy bo‘ladi? Ozigina fikr-u biroz ong kerakdir. Axir biz ham ular kabi odammiz, bizni ham tafakkurimiz aqlimiz bor. Bizni ham ko‘nglimiz yaxshi uylarda yashashni xohlaydi, bizni ham ko‘nglimiz shahrimiz obodu imoratlari yaxshi bo‘lishini xohlaydi. Biz ham boy bo‘lishni xohlaymiz. Bizni dunyoda hirsimiz ulardan ko‘proqdir. Biz hech vaqt dunyoni tark etib, go‘shanishinlikni kasb etmaganmiz. Ammo biz duo chizig‘ini yo‘qotib, kirish yo‘lini bilmaymiz. O‘z umrimizni ayshu ishrat, o‘yin va ahamiyatsiz narsalarga sarflaymiz. O‘z farzandlarimizni ta‘lim-tarbiya qilmaymiz”.[5]

Muallif yunon faylasuflarining davlat va jamiyat haqidagi fikrlari ortidan ergashishni ham qattiq qoralaydi. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karimda hamma savolga javob borligi, uni chuqur o'rganish kerakligi, yunon faylasuflari fikrlarining dunyo va oxirat uchun hech qanday foydasi yo'qligi ekanligini ta'kidlaydi: "Biz haligacha ilm ortidan ovoramiz, o'zimizning diniy ilmlarimizni tark etib, yunonlarning bir necha ming yillik chirigan faylasuflarining ortidan yuribmizki, bizning na dunyo va na oxiratimizga foydasi bor?".[5]

Turkiston ziyolilarini va xalqini Muhammad payg'ambar buyurganlariga amal qilishga chorlaydi. Amal qilmaslik salbiy oqibatlariga olib kelishidan ogohlantiradi: "Biz kim o'z payg'ambarimiz buyurganiga amal qilmadik, albatta xoru zor bo'lamiz va ajnabiylarga oyoq osti bo'lamiz".[6]

Mirzo Sirojiddin Turkiston jamiyatidagi xiyonat, yolg'on va aldashlardan norozi bo'ladi. Islom dinini niqob qilib, o'z dindoshi, millatdoshini aldayotgan ayrim amaldorlar va shaxslarning bu ishlarini illat deb ataydi. Bu illatlar ham xorlikka etaklayotganidan tashvishga tushadi: "Bizning odamlar o'z birodarlarimizga xiyonat qilish fikrida bo'lib, bir-birimizning huquqlarimizni buzib o'zlashtiramiz. Bizning ishimiz qalloblik, yolg'on va aldashdir. Garchi bizga qur'oniy va'dalar va rahmoniy va'dalar berilgan bo'lsa-da, qulog'imizga umuman kirmaydi. Va biz bu buyruqlarga amal qilmaymiz. Budirki, xoru zor bo'ldik".[7]

Taraqqiyparvar vatanini obod va ozod ko'rishni istaydi, uning taraqqiyoti uchun islohotlar zarurligini uqtiradi. Turkiston jamiyatini uyg'onishga, Vatan uchun birlashishga va uning rivojlanishi yo'lida ilm olishga hamda mehnat qilishga chaqiradi: "Vatandirki, uning muhabbati koinot faxri. Biz aziz vatanimizning qadrini bilmay uning obodligi va islohiga harakat qilmaymiz. Ayb vatanimizda emas, ayb bizning o'zimizda".[8]

Buxoroning Yevropa mamlakatlaridan taraqqiyot jihatdan orqada qolganidan afsuslanib: "Hozir ovro'poliklarning ishi shu darajaga borganki, temir yo'l mashinalaridan tortib to kemalari va osmon tayyoralarigacha elektrik nurini bera oladilar. Biz esa hanuzgacha eshak minib yuribmiz", — deydi. Ammo Mirzo Siroj bundan tushkunlikka tushmaydi, u Buxoroning kelajagiga ishonadi va taraqqiyot asosini ilm, hunar va tarbiyaga bog'laydi. Taraqqiyotga erishish uchun maorif sohasini rivojlantirish va isloh qilish kerakligini ta'kidlab: "Biz, Osiyo xalqi, ovro'poliklardan taraqqiyot jihatidan orqada qolgan bo'lsak ham, hali vaqt bor, qo'limizdan chiqib ketgan ilm va sarvatni qayta qo'lga olishga, bugungi faqirlikdan qutulishga imkoniyatimiz bor, taraqqiyot va obodonchilikni yo'lini to'sadigan biror narsa ko'rinmaydi va hech kim bizning yuzimizga ilm va hunar eshiklarini yopgani yo'q. Bizning taraqqiyotimiz ilmga bog'liqdir. Biz maktab va madrasalarimizdagi ta'lim va tarbiyani isloh qilishimiz kerak"[9], — deb o'z fikr-mulohazalarini taqdim etadi.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasi Turkistonni egallagach, ko'chirib keltirgan aholisi uchun ibodatxonalar qurdirgan va doimiy ravishda ularni ta'mirlab turgan. O'lkadagi masjidlar esa yildan yilga xarob bo'lib borgan. Mirzo Sirojiddin mustamlakachilar bu xarobalikdan mamnun bo'lgani holda Turkiston aholisining o'z masjidlarini obod saqlash uchun kurashmayotganidan afsuslanadi: "Butxonaning obodligi bizning buzuqligimizdan, jamiyatning kufrligi (kofirligi) bizning parokandaligimizdan. Islomda ayb yo'q, Har aybki bor bizning musulmonligimizdan".[8]

4. Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, dunyoning turli o'lkalarida bo'lgan Mirzo Sirojiddin o'z yurtini u yerdagi taraqqiyot bilan taqqoslagan. Turkiston jamiyatidagi nuqsonlarni sanab, ularning kelib chiqish sabablarini ko'rsatgan. Turkiston xalqini birlashishga, islom dinini asrashga, taraqqiyot uchun ilm olishga chorlagan jadid harakati namoyandasi sifatida gavdalanadi va har bir yosh avlodning ilm yo'lida izlanishlar olib borishda shuningdek, uning merosini o'rganish, targ'ib-tashviq qilish lozim ekanligi ta'kidlanadi.

Iqtiboslar/Cnoski/References:

1. Maksudova Sh. Turkistonda jadidchilik namoyandalari // <https://iiu.uz/oz/news/3076>
2. Мирзо Сирожиддин Ҳақим. Туҳафи аҳли Бухоро. Душанбе. 1992. 24-бет
3. Мирзо Сирожиддин Ҳақим. Туҳафи аҳли Бухоро. 54-бет.

4. Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Тухафи аҳли Бухоро. 65-бет.
5. Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Тухафи аҳли Бухоро. 75-бет.
6. Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Тухафи аҳли Бухоро. 83-бет.
7. Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Тухафи аҳли Бухоро. 85-бет.
8. Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Тухафи аҳли Бухоро. 87-бет.
9. <https://jadid.uz/jadids/mirzo-sirojiddin-hakim-buxoriy/>

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 7

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000